

34.013
X-61

D.O.XIMMATALIEV
L.R.RAJABOVA

**DIFFERENSIAL YONDASHUV
ASOSIDA TALABALARNI IJTIMOIY
PEDAGOGIK FAOLİYATGA
TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**



34.013.42.
R-11.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

D.OXIMMATALIYEV, L.R.RAJABOVA

DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA
TALABALARNI IJTIMOIV PEDAGOGIK
FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH

Monografiya

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Namangan - 2023

UO'K: 37.013.42
KBK: 74.200
X-61, R-11

ISBN: 978-9943-9594-5-3

Ximmataliyev D.O., Rajabova L.R.

Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: - 130 b.

Mazkur monografiyada differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari va uni amaliyotga tatbiq etish metodikalari yoritib berilgan. Shu bilan birga monografiyada o'qituvchi shaxsi va uning jamiyatda tutgan o'rni – pedagogik muammo sifatida, talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash tamoyillari, differensial ta'lim mazmuni, tamoyillari va uning pedagogik inkonyatlari, oliy pedagogik ta'lim jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etishning funksional modeli, talabalarni differensial pedagogik ta'limga tayyorlashga doir diagnostik metodlar, ijtimoiy pedagogik ta'limni differensial yondashuv asosida tashkil etish yo'llari kabi masalalar mazmuni-mohiyati keltirib o'tilgan.

Monografiya pedagogika oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistr va talabalar hamda umumta'lim maktablarining o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O'sarov Jabbor Eshbekovich – pedagogika fanlari doktori, professor.

Tagirizchilar:

Nurullaeva Shaxlo O'ktamovna – Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori;

Hakimova Muhabbat Fayzievna – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, pedagogika fanlari doktori;

Botirova Shaxlo Isamiddinovna – Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashining 2023 yil 15 martdagi 8-sonli majlis qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-9594-5-3

© Ximmataliyev D.O., Rajabova L.R.,
"U'smon Nosir media", Namangan-2023

KIRISH

Har bir pedagogik tajribacida talabalarning individual xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishni nazarda tutgan holda o'qitishga differensial yondashuvni amalga oshirish ularni o'quv-biluv faoliyati hamda tarbiyasi, qiziqishlari va qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy shaxsni shakllantirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida ta'lim muammosini oshirishning istiqbolli usullaridan biri ekanligi allaqachon o'z iboratini topgan. Zero, zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi yuqori texnologiyalar asosida har bir talaba shaxsining qobiliyatini ochib berish, hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash, raqobatchilik kadrlarni dunyo miqyosiga chiqarishdan iboratdir. Shuningdek, har bir talabaning o'z o'ziga muvofiq ravishda jiddiy maqsadlarni qo'yishi va ularga erishishi, ularni bil kasbiy vaziyatlarga muvofiq javob berishi uchun tayyorlash kerak. Bunga esa ta'lim jarayoniga differensial yondashuv asosida erishish muvofiq.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida hozirgi davrda o'qitishga differensial yondashuv xususiyatlarini tanlash va hisobga olish muammosi yangi emas, ammo hozirgacha uning yechimida yagona yondashuv ham mavjud emasligi bilan ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'limga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish ijtimoiy soha pedagoglarining professional faollashishi shakllanishini hamda zarur hollarda kasbiy almashinuvchanlikni ta'minlash va kasblarni asosan bir-birini to'ldiruvchi faoliyat sohalari muqaddirlariga mos keladigan funksional vazifalar sifatida birlashtirish muammosi beradi. Talabani differensial yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashda oliy ta'limda differensial ta'limga xos tuzilmalar tatbiq etish va amalga oshirish muhim pedagogik muammoligicha qolmoqda.

Ma'mlakatimizda ham barcha sohalar qatori uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratilyapti. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari inkonyatlarini oshirish, melnat muammosining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar

tayyorlash siyosatini davom ettirish¹ ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu bilan birga, "aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o'zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham muhim, albatta"². Bu esa oliy ta'lim tizimida talabalarni mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlash sifatini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Mazkur muammo yechimiga differensial yondashuv ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda har bir talabaga uning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlari, talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqib yondashish, ularni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash ishining mazmuni va shakllarini takomillashtirish, differensial yondashuv asosida ta'limni tashkil qilishning ilmiy, didaktik va texnologik jihatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bilim o'zlashtirishda zamonaviy yondashuvlar, bo'lajak mutaxassislarni faoliyatga tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlarini, kasbiy tayyorlash mazmuni, differensial ta'lim mazmuni, xususiyatlari va pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash mexanizmlari respublikamiz olimlari M.Ochilov, R.Safarova, T.G'afforova, E.Sattorov, S.Qoraev, G.Boymurodov, S.Bozorova, A.Holigov, R.H.Jo'raev, Sh.Nurullaeva, Q.Olimov, M.Magisdovalar³ hamda boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari T.V.Masharova, A.V.Matveev, L.V.Bayborodova, S.A.Izzyumova, N.M.Shaxnaev, I.E.Untlarining tadqiqotlarida differensiallashtirilgan o'qitish imkoniyatlariga oid masalalar yoritib berilgan. Jumladan, differensial ta'limning o'zgaruvchanligini, shakllari va usullarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar V.G.Ananayev, A.Asmolov, G.Soldatova, I.S.Vigotskiy, V.V.Davidov, G.K.Selevko, Yu.N.Galaguzova, Ye.S.Polat, M.Yu.Buxarkina, M.V.Moisevning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi. S.A.Grigorev, V.I.Jukov,

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatli strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatli strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sur'i. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-nahaa jodiy'yi, 2017. - 92 b.
²Ilmiziyov Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B. 231.
³Magisdovalar M. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy tayyorlanishning psixologik asoslari. Psixol.fan nom ... diss. Toshkent, 2011. - 162 b.

Va V.Koyunova, E.F.Zeer, V.V.Kraevskiy, A.V.Xutorskoy, V.A.Shareninlarning tadqiqotlarida psixologik aspektida differensial ta'lim tizimida shaxsni individual rivojlantirish masalalari bayon etilgan.

Xorijlik olimlardan L.Harvey, T.Hoffmann, Malcolm, D.Dickson, J.Gallard, D.Schaeffer, A.Moore kabilarining tadqiqotlarida differensial yondashuv asosida talabalar guruhini uchun vazifalarni taqdim etish, talabaning ishlab faoliyatini faollashtirish, mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlash yo'llari ko'rsatib berilgan.

Mutafakkir o'zining "Aql to'g'risida" nomli risolasida axloqiy odam egallashi lozim bo'lgan o'n ikki xislatni sanab o'tadi. Inson barcha a'zolarining mukammalligi, bilim olishga muhabbatli bo'lishi, xotirasi baquvvat, zehni o'tkir, so'zlari aniq, fikri ravonligi, g'ururti, vijdonli, adolati, moddiy boylikka berilmasligi kabilar shular jumlasidandir. Shuningdek, Forobiy ustozlar haqida fikr bildirib, "ta'lim-tarbiya ahlari ham o'z bilimlarining darajasiga qarab bir-birlaridan farq qiladilar, ortiq kam bo'ladilar. Ularning ba'zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo'lmaydi, ba'zilarida esa bu quvvat kamroq bo'ladi" deya ta'kidlaydi. [15; 110-b.]

Forobiyning ta'kidlashicha, baxt-saodatga eltuvchi yetuk jamoa rahbari (jumladan, o'qituvchi) komil inson uchun zarur bo'lgan barcha fazilatlarni hamda yetuk rahbar uchun shart bo'lgan xislatlarni egallagan bo'lishi kerak. Aks holda, ko'zlangan maqsadga erishishda turli to'siqlar vujudga keladi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilati, o'tkir mulohazali, foydali ishlariga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydlar, degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmagligiga ishora qiladi. Uning fikricha, ustoz shogirdiga zug'um qilishga, shuningdek, ko'p hollarda yon berishga intilmasligi darkor. Chunki ortiqcha zug'um shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi. Agarda shogird ustozning ko'ngli yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka, oxir-oqibada u beradigan bilimdan so'rov ketishga olib keladi. [15; 89-b.] Forobiy muallimlarning oqil bo'lishi ularning jamiyatdagi xizmatini va mavqei oshirishini ta'kidlaydi. Ular berayotgan tarbiya shu xalq, shu millatning amaliy tajribalarini keyingi avlodga yetkazish asosida yoshlarni ish-harakat, kasb-hunarga o'rgatishdir. Agar yosh avlod kasb-hunarga qiziqadigan bo'lsalar, qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga yo'llasa, demak, ular kasb-hunarining chinakam egasi bo'la oladilar, degan xulosaga keladi.

Sharq olimlaridan yana biri Abu Ali ibn Sino o'qituvchi qanday axloqiy sifatlarga ega bo'lishi lozim, degan savolga javob berib: "... O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql

qabuliga kira olmog'i lozim". [19; 87-b.] Abu Ali ibn Sino mulohazalariga ko'ra tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko'rishi, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo'lishi shart. Agar bola ishini yaxshi bilmasa, uni o'z vaqtida rag'batlantirish, gohida maqtab qo'yish, aksincha, bo'lganda esa, unga tanbeh berish kerak. Tanbeh bolaning izzat-nafsiga tegadigan bo'lmagligi lozim, o'quvchiga murosasozlik qilish esa bolaning o'z-o'zidan bo'lib qolishiga olib boradi, - deydi Ibn Sino. [19; 98-b.]

U jamiyat ma'naviyatini tashkil etuvchi asosiy axloqiy fazilatlarni sanab o'tib, uni juda ulug'laydi va axloqiy illatlarni keskin qaratadi. Olim ta'lim-tarbiya masalalariga jamiyatning yetakchi muammolaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratadi.

Ibn Sino ta'lim jarayonini tashkil etish muammosiga alohida e'tibor qaratgan va uni quyidagicha tashkil etish lozimligini ta'kidlaydi:

- ilmi to'liblarni birdan kitobga jalb qilib qo'ymaslik kerak.
- ta'lim asta-sekin, osondan qiyinga o'tish yo'li bilan olib borilishi lozim.
- yoshlar bilan amalg'a oshiriladigan tarbiya ularning yoshiga mos bo'lishi shart.
- ta'limni jamoa tarzida uyushirish darkor.
- o'qitish o'quvchining mayli va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishi zarur.
- o'qitish jismoniy mashqlar bilan qo'shilib olib borilishi shart.

Ibn Sino tarbiya masalalari ifodalangan asarlarida o'qituvchining rollari katta e'tibor bilan qaratgan. Tarbiyachi tanlashni muhim masala deb hisoblagan. U bola 6 yoshga to'lishi bilan uni ustoz tarbiyasiga berishni tavsiya qiladi. Tarbiyachi rostgo'y, dono, odil, ozoda kiyinadigan, xushmuomala bo'lishi zarurligini uqitirib, yosh avlodni o'qitadigan hamda tarbiyalaydigan kishilar oldiga bir qancha talablar qo'ygan. Uning fikricha:

Tarbiyachi – bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak.
Muallim o'quvchilar ta'limni qanday o'zlashtirayotganini kuzatib borishi kerak.

O'qitib jarayonida muallim har xil usullarni qo'llashi darkor.
Tarbiyachi o'quvchining xotirasi va boshqa aqliy qobiliyatlarini